Arxeologlar uchun yaxshi yangilik

O'zR FA Fizika-texnika institutiga zamonaviy yangi SEM (Scanning Electron Microscop. Joel 5100) qurilmasi keltirildi.



Ushbu mikroskop yuqori aniqlikda ega bo'lib, namunalarni 3 nanometrgacha kattalashtirib o'rganish imkonini beradi.

Arxeologiya ashyolar tahlilida

Qadimgi metall buyumlarning (qurollar, tangalar, zargarlik buyumlari) korroziya va degradatsiyasini tekshiradi.

Kulolchilik ishlab chiqarish texnikasini aniqlash uchun sirt teksturasini hamda xomashyo manbalarini va mineral qo'shimchalarni aniqlaydi.

Suyak va tishlarni tahlil qilish. Skelet qoldiqlarida diagenetik o'zgarishlarni (o'limdan keyingi o'zgarishlar) aniqlaydi.